

Sifatli va boyitilgan grafit olish texnologiyasi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi doktoranti Sh.Kuyliyeva sifatli va boyitilgan grafit olish ustida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Respublika sanoatini import o'rnini bosadigan sifatli grafit konsentratlari va grafit tarkibli mahsulotlar bilan ta'minlash uchun grafit rudasini boyitish va shu asosda grafitli surkov-moylash materiallari ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida Taskazgan konidagi grafit rudalarini flotatsiya yo'li bilan boyitish texnologiyasi ishlab chiqildi. Bunda flotareagent sifatida qo'llaniladigan hamda ko'pik hosil qiluvchi va yig'uvchi funksiyalarini bajaradigan yangi UGK (universal grafit ko'pirtiruvchisi)ning boyitish jarayoniga ta'siri o'rganildi. Grafit rudasini boyitish orqali sanoat tarmoqlariga zarur bo'lgan yuqori sifatli, tarkibida uglerodning miqdori 90-95% gacha tashkil etadigan grafit konsentratlari ajratib olindi hamda uning asosida grafitli-moylash materiallarining sinov namunalari tayyorlandi.



Ma'lumki, qora qalamning asosini uning markazida joylashgan qora silindrsimon shaklga ega bo'lgan sterjen (o'zak) tashkil etadi. Ushbu sterjenning asosini yuqori sifatli va yuqori disperslik (juda mayda zarrali) grafit tashkil etadi. Hozirda yosh tadqiqotchi tomonidan qora qalam sterjinlari namunalari tayyorlandi.